

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA SAMARALI  
PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL QILISHDA INGLIZ TILINING  
AHAMIYATI**

*Allamuratov G'ofur Ashurovich* - Nizomiy nomidagi TDPU "Ijtimoiy-gumanitar yo'naliishlarda xorijiy tillar" kafedrasi katta o'qituvchisi, dotsent v.b.  
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lif fakulteti 2-bosqich talabasi  
**Normamatova Yulduz Farhod qizi**

**ANNOTATSIYA.** Dunyo globalashuv jarayoni insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rghanishni taqozo qilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar ushbu jarayonni erta yoshda boshlash samaraliroq bo'lishini ko'rsatadi. Bizning yurtimizda ham ushbu masalaga qat'iy e'tibor qaratilgan, xorijiy tillarni o'qitishda xususan ingliz tilini o'qitishda dunyoning yetakchi tashkilot va universitetlar hamkorligida yangicha yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqilmoqda. Oxirgi 3 yilda bu jarayon maktabgacha ta'linda ayniqsa o'z rivojini topmoqda. Davlat qaramog'idagi hamda xususiy tarmoqdagi maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ingliz tilini o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada chet tillarini xususan, ingliz tilini bolalikni ilk yoshida o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanishning muhimligi va aynan turli o'yinlar orqali til ko'nikmalari oson o'zlashtirilishi yuzasidan fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til, erta yoshda til o'rghanish, ta'limiy o'yin, faoliyat, nozik vosita mahorati, ko'z-qo'l muvofiqlashuvi, faol ta'lif turlari, ingliz tilida blok o'ynash, rol o'yinlar, qo'l mehnati.

**THE IMPORTANCE OF THE ENGLISH LANGUAGE IN  
ORGANIZING AN EFFECTIVE PEDAGOGICAL PROCESS IN  
PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Allamuratov Gofur Ashurovich - senior teacher, acting Associate Professor of the Department of "Foreign Languages in Social and Humanitarian Areas" of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Normamatova Yulduz Farhod Kizi, 2-course student of the Faculty of Preschool Education named after Nizami.

**Annotation.** The process of globalization requires people to learn several foreign languages in addition to their mother tongue. Current research shows that starting this process at an early age is more effective. In our country, strict attention is paid to this issue, programs are being developed based on a new approach to teaching foreign languages, especially English, in cooperation with the world's leading organizations and universities. In the last 3 years, this process is developing especially in preschool education. Large-scale projects on teaching English are being implemented in state-owned and private pre-school educational organizations. This article highlights the importance of using educational games in teaching Shet languages, especially English, in early childhood, and the easy acquisition of language skills through various games.

**Key words:** foreign language, early language learning, educational game, activity, fine motor skills, hand-eye coordination, active learning types, block play in English, role-playing games, manual labor.

## **ЗНАЧЕНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ОРГАНИЗАЦИИ ЭФФЕКТИВНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

Алламуратов Гофур Ашуревич – старший преподаватель, и.о. доцента кафедры «Иностранные языки в социально-гуманитарных направлениях» Ташкентского педагогического университета имени Низами.

Нормаматова Юлдуз Фарход кизы, студентка 2-курса факультета “Дошкольное образование” Ташкентского педагогического университета имени Низами.

**Аннотация.** Процесс глобализации требует от людей изучения нескольких иностранных языков помимо родного. Текущие исследования показывают, что начинать этот процесс в раннем возрасте более эффективно. В нашей стране этому вопросу уделяется пристальное внимание, разрабатываются программы, основанные на новом подходе к обучению иностранным языкам, особенно английскому, в сотрудничестве с ведущими мировыми организациями и университетами. В последние 3 года этот процесс особенно развивается в дошкольном образовании. Масштабные проекты по обучению английскому языку реализуются в государственных и частных дошкольных образовательных организациях. В данной статье подчеркивается важность использования обучающих игр при обучении шестским языкам, особенно английскому, в раннем детстве, а также легкость приобретения языковых навыков с помощью различных игр.

**Ключевые слова:** иностранный язык, раннее обучение языку, развивающая игра, деятельность, мелкая моторика, зрительно-моторная координация, активные виды обучения, блок-игра на английском языке, ролевые игры, ручной труд.

## Kirish

Hozirgi kunga kelib Maktabgacha ta'lim sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlarni bugun har bir yurtdoshimiz sezib, kuzatib turibdi. Ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimiga davlat tomonidan bu qadar tizimli va bir-birini to'ldiruvchi e'tibor hamda ama-liy yordam kuzatilmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etish va 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning to'laqonli ta'lim-tarbiya olishini ta'minlash masalasi davlatimiz rahbari tomonidan kechiktirib bo'lmas vazifa sifatida ilgari surildi. Sababi bog'chalar ta'lim muassasasi vazifasini bajarish o'rniغا ota-onan ishda bo'lgan vaqtida bolaga qarab turadigan muassasaga aylanib qolgani, qamrovning

pastligi, binolarning ta'mirtalabligi, boshqa maqsadlarda ishlatalgani, metodik jihatdan to'liq ta'minlanmagani, pedagoglar ijtimoiy himoyasi va maoshining pastligi kabi kompleks muammolarni hal etish kechiktirib bo'lmash masala edi. Keyingi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 45 foizga kamaygani, 2,45 million boladan 818 ming nafarigina maktabgacha ta'lim tashkiloytlariga qamrab olingani bu fikrlar isboti bo'la oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasining yaroqsiz holati bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermasdi. 2017-yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilish maktabgacha ta'lim tizimi tarixida qoladigan yig'ilish bo'ldi. Shu kuni mamlakatimiz Prezidenti davlat milliy genofon-dini mustahkamlash borasida gapirib, ta'limning ilk bosqichini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlarini belgilab berdi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini tar-kibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur ta'lim tashkilotlariga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi.

Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya — biz uchun hayot-mamot masalasidir, — dedi Prezident. — Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biror-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.

Hozirgi kunga kelib esa bu ko'rsatkichlar o'zining samarali natijasini berib kelmoqda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ikkinchi tilga o'rgatish ham asosiy masala sifatida ko'rilmoxda. Qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari odatda ingliz tili muhitidan ancha uzoq bo'lgan sharoitda o'sishadi va bolalarning fikrashi mavhum shaklda qolaveradi, bolalarning yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni doimo hissiyotlarga tayangan holda kechadi. Shuning uchun, bog'cha yoshidagi bolalarga ingliz tili o'qituvchilari o'qitishda oson

metodikalar orqali, tarbiyalanuvchilar atrofidagi buyumlardan, kartochkalardan va boshqa o'quv qo'llanmalaridan to'liq foydalanishadi. "Banana" va "apple" kabi so'zlarni o'qitishda bolalarning banan va olma kabi mevalarni ko'rsatib birdaniga rangni bildiruvchi yangi so'zlarni ham o'rgatib ketishlari mumkin. O'qituvchilar o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun mashg'ulot xonasidagi narsalar orqali ularni chet tilida qo'llanilishini o'rgatib borishadi. Albatta, o'qitish mobaynida buyumlardan foydalanishda o'qituvchilarning metodikasi katta ro'l o'yndaydi. Misol uchun, tegishli so'zlarni o'rgatayotganda, siz avvalo buyumni bolaga ko'rsatib uni gapirishga undaysiz, bolalar so'zlarni talaffuz qiladi va ular talaffuz qilgan so'zni mustahkamlash uchun kartochkalardagi rasmlardan foydalanib yana bir bor yangi so'zni takror talaffuz qildiriladi. So'zlarni o'qitishda o'qituvchilar matn mazmunini belgilab olishlari va bolalar e'tiborini jalb qilish uchun tarbiyachi ular bilan birgalikda so'zlarni talaffuz qilib doskaga suratini chizish orqali ularning e'tiborini tortishlari mumkin bo'ladi. Shuning uchun hozirda Xitoyda tarbiyachidan rasm chizish mahoratiga ega bo'lish talab qilinadi. Bu nafaqat o'qitishning qiyinchiliklarini qisqartiribgina qolmay, balki bolalarni o'rgangan bilimlarni astasekin mustahkamlashga yordam beradi. Bolalar ingliz tilini o'rganish jarayonida o'zlaridagi yutuqlarni his etishlari uchun har bir o'quv mashg'ulotiga mukammal yondashish kerak. Ana shundagina bolalarda o'rganishga motivatsiya uyg'onadi. Hozirgi kunda Xitoylik bog'cha yoshidagi bolalar yangi bilimni qabul qilish imkoniyatlari juda ilgarilab ketganligi sababli bog'chalardagi o'qitish dasturlari shunga mos ravishda intensivlashtirilgan. Mashg'ulot xonasi muhitini yaxshilash uchun qo'shiq va harakatli o'yinlardan foydalanish. Moslashuvchan mashg'ulot xonasi atmosferasini yaratish, ba'zida har qanday ta'lim usulidan ko'ra muhimroqdir. Xonada dars boshida inglizcha yoqimli qo'shiq bilan o'qituvchi boshchiligidagi barcha bolalar birgalikda qo'shiq kuyladilar va uning ohangiga mos ravishda biroz raqsga tushadilar. Bu o'z-ozidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo'lishga va qo'shiqni so'zlarini tezroq yod olishga yordam beradi. Inglizcha muhit,

muhimi, yaxshi o'quv atmosferasiga tabiiy ravishda kirishga imkon beradi. Bolalarning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati sust bo'lib, butun mashg'ulot davomida e'tiborini jamlashi va egallab olishi qiyin. Shuning uchun, o'qituvchi bolalar tinglashni yaxshi ko'radigan qo'shiqlarni, she'rlarni yoki tilni chiniqtirish uchun tez aytishlarni, yoki bo'lmasam bolalar yaxshi ko'radigan animatsion multfilmni taqdim etishi kerak. Multfilmlar. Bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi. Ta'lim darajasini oshirishda imo-ishorani yuz ifodasining o'rni. Imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali: O'qituvchi bolalarga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel, kitobni och, turing, doskaga qarang, kabi gaplarni ishlatganda imo-ishoralardan foydalansa bolaga bu gaplar tushunarli bo'ladi. Imo-ishora ingiliz tilining eng muhim o'rgatish usulidir. Deyarli barcha tarbiyachi tayyarlov jarayonida hayvon ishoralari eng oson usul ekanligini biladi. (dog) kuchukcha – tarbiyachi egilgan holatda, kerak bo'lsa tilini chiqarib bolalarga it qiyofasini shakllantirib beradi; (rabbit) quyoncha-qolchasini ko'ksiga egig qo'ygan holatda sakrab ifoda etadi; (monkey) maymuncha-bir oz egilib yurgan holatda o'z qiyofasini namoyish etadi. Taqlid qilish hislati bo'lган bolalar uchun bu judayam qiziq tuylib, shu zahoti ifoda etilgan hayvon nomini aytishga majbur qiladi. bu esa yangi o'tilgan so'zlarni eslab qolishga turtki bo'ladi. Hozirgi kunda yosh oilalarning ko'pchilik qismini bitta farzand tashkil qilishini hisobga olsak bunday oila farzandlari juda erka xarakterga ega bo'ladi. Shu o'rinda aytib o'tishimiz joizki tarbiyachining Ana shunday xarakterga ega bo'lган bolalar yuragiga yo'l topshi oson bo'lmaydi. Tarbiyachida mehrli ko'zi, muloyim tabasumi bo'lishi kerak bu bolalarda o'zgacha tarbiyachiga bo'lган mehrni uyg'otadi. Imo-ishora usuli bolalarni mustaqil harakat qilishga va chet tilini qiziqarli o'rganishlariga yordam beradi. Biz bu orqali chet tili o'ganish qiziqarli atmosferasini yaratamiz. Olingan ko'nikmalarni mustahkamlash uchun

jumboq o'yinlardan foydalanish. Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingiliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borish kerak, uni xato bo'lsada gapirishga majbur qilish kerak, ana shundagina tarbiyalanayotgan bola o'z oldidagi to'siqlarni yengib o'tib, qo'rmasdan gapira oladi. Agarda biz chet tili darsini dars emas, balki o'yin shakliga keltirsak kichik yoshdag'i bolalarni qiziqishini yanada oshiradi. Shu bilan birgalikda ularning aktivlik darajasi ham o'sib boradi. O'yining turlari juda ko'p misol uchun tarbiyachi "qopda nima bor degan" o'yini bolalar bilan o'ynashi mumkin. Xonadagi kichik buyumlarni xaltachaga solib, bolalarga birma bir olishriga ruhsat beradi va bolalar bu buyumlar nomini ingliz tilida aytib berishadi. "Is it a banana (an apple, an orange)?" tarbiyachi baholashga kirishadi, va eng ko'p bal to'plagan guruhni taqdirlaydi. Shu bilan bolalar yanada chet tiliga bo'lgan qiziqishlari o'sib boradi. Bolalar o'rtasida musobaqalar judayam muhim, sababi bolalarda yoshlidan raqobat tuyg'usini shakllantirib borish kerak bo'ladi. Ana shudagina har bir bolada motivatsiya tilga bo'lgan qiziqish uyg'onadi.

O'qitish samaradorligini oshirish uchun multimediedan foydalanish. Multimedia orqali o'qitish tarbiyachiga katta imkoniyatlarni beradi. Bunda bollalarning qiziqishini yuqori darajagacha ko'tarish va ularning e'tiborini uzoq vaqt jalg qilib turish mumkin. Bu orqali bollarning tilga bo'lgan ko'nikmalarini yanayam ortganini korishimiz mumkin. Agarda mavzuyimiz "Animals" bo'lsa biz har xil hayvonlarni nomlarini o'qitishda avval ularning tovushlaridan foydalanamiz bolalar bunga qattiq e'tibor qaratishadi, va shu zahotiyot cat, tiger, bear.... deb hayvonlar nomlarini ayta boshlashadi. Bolalik davrida insonining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun eng yaxshi vaqt deb hisoblash mumkin. Shu sababli, muktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'qituvchilari bolalarning ehtiyojlariga(qiziqishlariga) asoslanib fanni qo'llashlari kerak. fikrlash mashqlari va aqliy rivojlantirishni yangi multimedia texnologiyalari yordamida, eshitish, rang bilish, shakl tanlash qobiliyatini shakllantirib borish zarur. Bolalarning tashqi axborotni qabul qilish qobiliyatini oshirish va ko'p qirrali fikrlashini rivojlantirishga

ko'maklashish juda zarur. Biz maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda chet tilida eshitish qobiliyatining oqsoqligini ko'p uchratishimiz mumkin, bu bolalarning yetarli darajada eshitish darslarini egallamagini bildiradi. Real hayotda bolalarni telvizor ostida animatsion multfilmni jimgina tamosha qilishlarini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda Maktabgacha ta'lif tashkilotlarini yuqori texnologiyalar bilan taminlash vaqtি yetib keldi. Ularga doimiy chet tillaridagi multfilm darslani eshitirish lozim, bolaning bo'g'cha davridan chet tili qobiliyatini rivojlantirish uning keyingi bosqichda barcha bilimlarni yengil qabul qilishiga yordam beradi. Bog'cha yoshidagi bosqichda til qobiliyatining rivojlanishi asosan doimiy taqlid orqali shakllantiriladi va ko'pgina ro'llar ko'pincha multfilmlarda taqlid orqali paydo bo'ladi, Shuning uchun, multfilmni tomosha qilayotganda, bolalarning harakatlardagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, multfilmni samarali ta'lif vositasi sifatida qo'llashimiz mumkin, bu esa bolalarning ta'lif samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda ba'zi ota-onalar bolalarning multfilmga bo'lgan qiziqishidan juda tashvishga tushishadi, ammo aslida, yosh bolalarning rivojlanishidagi ularning fantaziya dunyo qarashini shakllanishining asosiy omili bo'lib hizmat qiladi. Shuning uchun, o'qitishda biz Amerika Qo'shma Shtatlarining masofadan boshqarish usuli ya'ni, multfilmlarni bolalarning til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish usuliga aylantirishimiz mumkin. Barchamiz bilamizki, bu bosqichda yosh bolalar o'zlarining fikrlash qibiliyatları va tilni qo'llash qobiliyatini haqiqiy hayot tajribasidan o'rganib boradilar, ayniqsa bu bosqichdagı yosh bolalar uchun multfilmlar bilan muloqot qilish, Masofadagi masovaviy hissiy jihatini kengaytirib, bolalarning til bilimi darajasini oshirish uchun hizmat qiladi. Aslida chet tilini o'rganishni bolaning juda ham yosh davirlardan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miyya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miyya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni

rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfilmlardan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

### **Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi — 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2707- sonli Qarori.
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan Davlat talablari. T., 2018 yil
3. Ilk qadam davlat o'quv dasturi. T., 2020 yil.
4. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. Baxramova M. D. Tuzuvchi: Baxramova M. D., — T. 2016.
5. Maksudova, G. O., Ilkhamova, I. N., Ruzmetova, D. A., Mamadzhanova, N. A., & Allamuratov, G.A. (2022). Research of Modern Technologies of Education. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2483-2485.